

PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz til filologiyasi,
o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti sharq
tillari (arab tili) yo'nalishi 102-guruh talabasi
Xasanova Maftunabonu Raxidin qizi
Ilmiy maslahatchi: **Kabulova U.S***

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi paremiologik birliklarning mazmuniy, obrazli va funksional xususiyatlari yoritilgan. Paremiologik birliklarning xalq dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlar va nutq madaniyatidagi o'rni H.Berdiyev va R.Rasulovning "Paremiologik birliklar lug'ati" hamda frazeologiya bo'yicha ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ushbu birliklarning barqarorlik, umumlashgan semantika va badiiylilik kabi belgilariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: *paremiologik birlik, barqaror birikma, obrazlilik, frazeologiya, maqol, matal, xalq og'zaki ijodi, semantika.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются семантические, образные и функциональные особенности паремнологических единиц узбекского языка. Анализ проводится на основе «Словаря паремнологических единиц» Х.Бердиярова и Р.Расулова, а также научных исследований по фразеологии. Особое внимание уделяется признакам устойчивости, обобщённой семантики и художественной выразительности данных единиц.

Ключевые слова: *паремнологическая единица, устойчивое сочетание, образность, фразеология, пословицы, поговорки, фольклор, семантика.*

Annotation: This article discusses the semantic, figurative, and functional features of Uzbek paremiological units. The analysis is based on the "Dictionary of Paremiological Units" by H.Berdiyev and R.Rasulov, as well as scholarly works on phraseology. Special focus is placed on the characteristics of stability, generalized semantics, and artistic expressiveness of these units.

Keywords: *paremiological unit, fixed expression, figurativeness, phraseology, proverbs, sayings, folklore, semantics.*

Paremiologik birliklar o'zbek tilining barqaror leksik qatlamiga mansub bo'lib, xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy mezonlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi nutq birliklaridan hisoblanadi. H.Berdiyev va R.Rasulov ularni "xalq tafakkurining ixcham, obrazli ifodasi sifatida yuzaga kelgan tarixiy til birliklari" deb ta'riflaydi¹.

¹ Berdiyev H., Rasulov R. Paremiologik birliklar lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014.

Paremiologik birliklarga xos belgilardan biri — barqarorlikdir. Ular tarkiban o'zgaras holda qo'llanadi. Masalan, "Yomon yo'ldosh — yo'ldan qolar" kabi birliklar o'zgaras konstruksiyaga ega. Shuningdek, ularning ikkinchi muhim jihati — obrazlilik. Paremiologik birliklar mazmuni ko'pincha metafora, o'xshatish va mubolag'alar orqali kuchaytiriladi. "Til — tig'dan o'tkir" kabi birliklar ana shu obrazli ma'noning yorqin namunalaridir².

Paremiologik birliklar semantik jihatdan umumlashgan mazmunga ega. Ular individual holatni emas, balki jamiyat tajribasini mujassamlashtiradi. Tadqiqotchilar fikricha, paremiologik birliklar xalq ma'naviy xotirasining eng ixcham leksik shakllaridan biridir³. O'zbek tilshunosligida paremiologik birliklar frazeologiyaning alohida tadqiq yo'nalishi sifatida o'rganilgan. Sh.Rahmatullaevning lug'atida o'zbek xalq og'zaki ijodidagi maqol-matal va iboralarning semantik guruhlariga bo'linishi keltiriladi⁴.

Paremiologik birliklarning kelib chiqish manbalari xalq og'zaki ijodi, diniy qarashlar, turmush tarziga oid kuzatuvlar, mehnat jarayoni va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. A.Madvaliyevning qayd etishicha, bunday birliklar xalq tafakkuri va madaniyatining lingvistik ko'rinishidir⁵.

Paremiologik birliklarning o'zbek tili tizimidagi o'rni nihoyatda muhim: ular nutqni obrazli, ifodali, ta'sirchan qiladi; adabiy matnlarda badiiy vosita sifatida keng qo'llanadi. Frazeologiya bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar ham paremiologik birliklarning stilistik imkoniyatlari yuqori ekanini ta'kidlaydi⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyrov H., Rasulov R. Paremiologik birliklar lug'ati. -Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014.
2. Berdiyrov H., Rasulov R. O'zbek tilidagi paremiologik birliklarning mazmuniy-pragmatik xususiyatlari // Til va adabiyot, 2016.
3. G'ulomov A. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -Toshkent: Fan, 1992.
4. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1990.
5. Madvaliyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 1995.
6. Hojiyev A. Tilshunoslik asoslari. -Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.

² Berdiyrov H., Rasulov R. O'zbek tilidagi porimeologik birliklarning mazmuniy-pragmatik xususiyatlari // Til va adabiyot, 2016.

³ G'ulomov A. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -Toshkent: Fan, 1992.

⁴ .Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1990.

⁵ Madvaliyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 1995.

⁶ .Hojiyev A. Tilshunoslik asoslari. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.